

2025-yil 25-fevral

Toshkent shahri

"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi, direktor A.Temirov – bundan keyin matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi, bir tomondan, fuqaro, Mustanov Tollibay Boltayevich (05.06.1966-yilda tug'ilgan, pasport seriyasi AD9888882, Toshkent shahri, Olmazor tumani IIV tomonidan 19.12.2024-yilda berilgan, hozirda yashash manzili (Toshkent shahri, Olmazor tumani, shifokorlar mavzesi 14/30) – bundan keyin matnda "Ijrochi" deb ataluvchi, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarishni topshiradi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlar uchun shartnomaning 7.1-bandida kelishilgan haqni to'lab berish majburiyatini oladi.

II. "Ijrochi"ning majburiyatlari

2.1. Mazkur shartnomaga ko'ra "Ijrochi" - Mahalliy va horijiy ishlab chiqaruvchilari tomonidan taqdim etilgan dori vositalarining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ekspertizasi kabi vazifasini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi" nomidan har qanday holatda bitimlarga kirishish huquqiga, bayonotlar, topshiriqlar berishga va va'da berishga haqli emas.

2.3. "Ijrochi":

- "Buyurtmachi" topshirgan barcha ishlarni sifatli, to'laqonli va o'z vaqtida bajarishi;
- topshirilgan ishni shaxsan o'zi va tegishli mutaxassislar bilan bamaslahat bajarishi;
- xizmat ko'rsatishda "Buyurtmachi"ning mulkini avaylab asrashi, jihozlar va materiallardan ehtiyot bo'lib foydalanishi;
- mazkur shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarishda ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni sir saqlashi lozim.

III. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari

3.1. "Buyurtmachi":

- "Ijrochi" xizmat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi;
- bajarilgan ishlar uchun kelishilgan haqni o'z vaqtida to'lab berishi;
- xizmat ko'rsatish uchun zarur jihozlar va ma'lumotlar bilan ta'minlashi lozim.

IV. Ijrochining huquqlari

4.1. "Ijrochi" quyidagi huquqlarga ega:

- bajarilgan ishlar uchun kelishilgan haqni "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida to'lab berilishini talab qilish;
- "Buyurtmachi"dan xizmat ko'rsatish uchun zarur jihoz va ma'lumotlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- o'zi aybdor bo'lmagani holda (buyurtmachining aybi bilan) xizmatni bajara olmagan taqdirda, buyurtmachidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun sarflangan haqiqiy xarajatlarni to'lashni talab qilish.

V. Buyurtmachining huquqlari

5.1. "Buyurtmachi" quyidagi huquqlarga ega:

- "Ijrochi"dan shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlarni o'z vaqtida va sifatli tarzda bajarilishini talab qilish;
- "Ijrochi"dan shartnomani umuman yoki tegishli darajada bajarmagan hollarda u keltirgan zararni to'lashni talab qilish;
- xizmatlarning belgilangan bahosini batamom to'lash sharti bilan shartnomani bekor qilishni talab qilish, shartnoma ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

VI. Topshirilgan ishni bajarish tartibi

6.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, ko'rsatilgan xizmatlar har oy yakuni bo'yicha ikki tomon o'rtasida tuziladigan "Bajarilgan ishlar dalolatnomasi" asosida rasmiylashtiriladi.

6.2 Ushbu dalolatnoma rasmiy hujjat bo'lib, "Ijrochi"ga xizmat haqini to'lash uchun asos hisoblanadi. Dalolatnoma ikki nusxada rasmiylashtirilib, biri "Buyurtmachi" (muassasa buxgalteriyasi)da, ikkinchisi "Ijrochi"da saqlanadi.

VII. Bajarilgan ish uchun haq to'lash tartibi

7.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" tomonidan yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli va muddatida bajargan ishlari yuzasidan Tarifkar orasida dalolatnoma rasmiylashtiriladi hamda topshirilgan ish hajmidan Ijrochining xizmat haqi kelib chiqadi.

7.2. Ijrochining xizmat haqini 2025-yil 3-yanvardan 13-fevralgacha bo'lgan davr uchun muassasaning 2022-yil 5-avgustdagi 63-sonli buyrug'iga muvofiq, 2025-yil 14-fevraldan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 43-sonli buyrug'iga muvofiq belgilangan summa, amalda bo'lgan soliq va majburiy to'lovlarni hisobga olgan holda, "Buyurtmachi" tomonidan to'lab beriladi.

7.3. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga bajargan ishlari uchun belgilangan haqni ishlar bajarilgan oydan keyingi o'ying 6-sanasiga qadar to'lab beriladi.

- VIII. Javobgarlik va nizolarni hal etish tartibi**
- 8.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlarning javobgarligi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari bilan tartibga solinadi.
- 8.2. Shartnoma predmeti bo'lgan ishlarni bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolar o'zaro kelishish yo'li bilan hal etiladi. O'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda ushbu sohani tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik talabi asosida tegishli sudda hal etiladi.
- 8.3. "Ijrochi" shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararning hammasini to'lash sharti bilangina shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma "Buyurtmachi"ning aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.
- 8.4. "Buyurtmachi" xizmatlarning belgilangan bahosini batamom to'lash sharti bilan shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma "Ijrochi"ning aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

- IX. Korruptsiyaga qarshi kelishuv**
- 9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni ular, ularning vakillari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi hamkorlari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 9.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) kun mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
- 9.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsiya xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsiya holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.
- 9.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli emas.

X. Yakuniy qoidalar

- 10.1. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, tomonlar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Mazkur shartnoma 2025.31.12 ga qadar amal qiladi.
- 10.2. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki shartnomani bekor qilish "Buyurtmachi" va "Ijrochi" o'rtasida yozma shaklda qo'shimcha kelishuv tuzilib, ular tomonidan imzolangan taqdirda, yuridik kuchga ega bo'ladi.

XI. Tomonlarning manzil va rekvizitlari

"BUYURTMACHI"

"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ozod ko'chasi,
K.Umarov tor ko'chasi, 16-uy

Direktor

MO'



A. Temirov

"IJROCHI"

F.I.O.: Mustanov Tollibay Boltayevich

Yashash manzili: Toshkent shahri, Olmazor tumani, shifokorlar mavzesi 14/30

Pasport seriyasi va raqami: AD9888882

JSHSHIR: 28305066602217


Telefon: +998935794204

Mazkur shartnoma bilan tanishdim va bir nusxasini oldim:


(imzo)

Mazkur shartnoma loyihasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlarining tegishli normalariga mos keladi. Shartnoma "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq xarid qilish tartib-taomillariga asosan tuzilgan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

Yuridik bo'lim:


(imzo)

